

VILOYAT HOKIMI O'RINBOSARI SO'X TUMANIDA



VILOYAT HOKIMI O'RINBOSARI SO'X TUMANIDA

So'x tumani hududidagi qishloq xo'jaligida foydalanmaydigan yerlardan samarali foydalanish, aholiga munosib daromad manbai yaratib berish, fuqarolarga yer ajratib berish orqali ularning bandligini ta'minlash, tumanda sitrus, tropik mevalar va shifobaxsh giyohlar parvarishini yo'lga qo'yish bo'yicha viloyat hokimi tashabbusi bilan Javpaya mavzesida issiqxonalar majmui barpo etilmoqda.

Viloyat hokimi X. Bozorov topshirig'i bilan Javpayada ishlarni tashkil etish bo'yicha shtab tashkil etilishi belgilangan edi. Bugun viloyat hokimi o'rinbosari J. M. Hatamov tumanimizda bo'lib, massivda olib borilayotgan ishlarni ko'zdan kechirib bu yerda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar bilan muloqotda bo'ldi.

- Asosiy maqsad har bir qarich yerdan samarali foydalanish etib belgilangan ekan, ushbu yo'nalishda barcha bilim va salohiyatimizni safrbar etishimiz lozim bo'ladi, - deydi viloyat hokimi o'rinbosari.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-01-06 18:13:33